



2023-yil. 1-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

**L**ANGUAGE AND LITERATURE  
**TEACHING** | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil  
1  
son

«Til va adabiyot ta'limi»  
«Преподавание языка и литературы»  
«Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Baxtiyor Saidov  
Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Nargiza Rahmonqulova  
Yorqinjon Odilov  
Nasirullo Mirkurbanov  
Jabbor Eshonqulov  
Valijon Qodirov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
Tolib Enazarov  
To'liqin Saydaliyev  
Ravshan Jomonov  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqbo'y Yo'ldoshev  
Tajixon Sabitova  
Salima Jumayeva  
Nilufar Namozova  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulkayrov  
Lutfullo Jo'rayev

(bosh muharrir o'rinbosari)

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)

Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)

Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)

**Muharrirlar:**

Nilufar Namozova  
Nigora Uralova  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.

e-mail: til\_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

**M U N D A R I J A**

**TAHLIL**

<b>Shodiya A'zamova.</b> "Shaytonning Tangriga isyoni" asarining tahlil va talqini .....	2
<b>Xasan Gafforov.</b> Gender lingvistikasining dolzarb muammolari .....	4
<b>Zebo Umarova.</b> Zamonaviy tilshunoslikda xalqaro turizm terminologiyasidagi innovatsiyalar .....	6
<b>Manzar Abdulkayrov.</b> Navoiy asarlaridagi shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlar tahlili .....	8
<b>Ravshan Niyozov.</b> Jon Grishamning "Qotillik payti" asaridagi zamon va ijtimoiy munosabatlar kategoriyasining badiiy talqini .....	9
<b>Darmonoy O'rayeva, Dilorom Jo'rayeva.</b> Anbar Otin ijodida gender tenglik talqini .....	10
<b>Sadoqat Mamajonova.</b> Navoiy dahosini anglash .....	12
<b>Maftuna Xalova.</b> Ayollar she'riyatida davr va janr poetikasi .....	14

**TILSHUNOSLIK**

<b>Elena Surmilova.</b> Feminization of the english language in modern social context .....	16
---	----

**TADQIQOT**

<b>Yo'ldosh Rahmatov.</b> Xalq maqollari va obrazli tafakkur .....	18
<b>Nodira Mirhaydarova.</b> Rus tilidagi "Духовность" umumiy semali leksemalarning o'zbek tiliga tarjimasi .....	21
<b>Murotali Latipov.</b> Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasida o'zlashma qatlam so'zlar va davr neologizmlari .....	24
<b>Raxmatulla Norbekov.</b> So'z san'atini maktabda germenevtik mezonlar bilan o'rganish .....	27
<b>Mansurbek Masharipov.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida arabcha o'zlashma sinonim birliklar .....	30
<b>Farrux Yuldashev.</b> Lingvoma'naviyatshunoslik: lingvokulturologiya va aksiolingvistikaga munosabat .....	33
<b>Ra'no Ashurova.</b> Système ponctuel français: historique et état actuel .....	36
<b>To'xtamurod Rajabov.</b> Badiiy ko'chim vositasida yangi ma'no hosil qilish shakllari .....	38
<b>Madina Rashidova.</b> So'z-gaplar tasnifi .....	40
<b>Sardor Sherkulov.</b> U.Folknerning "Shovqin va g'azab" romanida obraz tipologiyasi va nuqtayi nazarlar xilma xilligi .....	43
<b>Saodat Muminova.</b> Bobur ma'naviy-intellektual yetuk shaxs .....	45
<b>Norbek Yunusov.</b> Ingliz va o'zbek tillarida fe'l-atvor ifodalovchi sifatlarning lingvistik tavsifi haqida .....	47
<b>Gulnora Ergasheva.</b> Teaching english in preschool institutions .....	50
<b>Gulsanam Sanayeva, Mirshod Abdurahmonov.</b> Ingliz tili fanini o'zlashtirishda tinglab tushunish topshiriqlarning ahamiyati .....	53
<b>Ma'sud Jabborov.</b> Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir .....	54
<b>Mohigul Alimardonova.</b> Beshinchi sinf ona tili mashg'ulotlari uchun berilgan mashqlar doirasida o'qib tushunish metodlari .....	55
<b>Nafisa Obidova.</b> Hikoyada badiiy-psixologik kechinma tasviri .....	57
<b>Dildora Omonova.</b> O'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari .....	59
<b>Zarina Sayliyeva.</b> Ibrohim Haqqulning fikr aytish mahorati .....	62
<b>Dilora Sidiqova.</b> Masofaviy ta'lim tushunchasi va uning ahamiyati .....	64
<b>Gulbahor Hasanova.</b> Mumtoz asarlarni o'qitishda muammolar tahlili .....	66
<b>Feruza Matenova, Djamilya Abduganiyeva.</b> Types of translation and its main classifications .....	68
<b>Zebiniso Bekmuradova.</b> Xiazm va takror figuralar .....	70
<b>Tumaris Kabulova.</b> The problem of identity in the american literature of post second war period .....	72

## Liste des sources:

1. Beregovskaya E.M. Essais sur la syntaxe expressive. M. : Rokhos, 2004. 208 p.
2. Vedenina L. G. Ponctuation de la langue française. Moscou : École supérieure, 1975. 168 p.
3. Glazkova A. V. La variation typographique comme outil de production de narration dans le roman de Bernard Werber « Les fourmis » : autoréf. insulter. K. philol. n.m. Voronej, 2013. 22 p.
4. Kornienko A. A. Ponctuation: changements dans le système // Bulletin de la linguistique d'État de Piatigorsk université. 2013. N° 3. P. 127-130.
5. Merkulova I. G. Signes de ponctuation périphériques dans la prose française moderne : diss. ... K. philol. n.m. M., 2001. 167 p.
6. Tkachenko L. N. Ponctuation et organisation graphique du texte narratif français moderne (basé sur les textes de P. Begbeder): diss. ... K. philol. n.m. Voronej, 2013. 169 p.
7. Aubry G. Personne. P. : Mercure de France, 2009. 159 p.
8. Catch N. La ponctuation : histoire et système. P. : Presses universitaires de France, 1996. 128 p.
9. Dubois J. Point de compréhension sans ponctuation [Ressource électronique]. URL : <http://pontt.net/2008/08/pointdecompre>
- hensionsansponctuation-j-dubois2008/ (date d'accès : 23/02/2010).
- 10 Grevisse M. Le bon usage. Grammaire française. P. : Duculot, 1993. 1762 p.
11. Houdart O., Prioul S. L'art de la ponctuation. Saint-Amand-Montrond : Éditions du Seuil, 2009. 222 p.

To'xtamurod Rajabov

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

## BADIY KO'CHIM VOSITASIDA YANGI MA'NO HOSIL QILISH SHAKLLARI

**Annotatsiya.** Ko'chimlar davr talabi, zamon ehtiyoji, kishilarning ongi va dunyoqarashiga bog'liq holda yangi ma'no qirralari bilan bo'y ko'rsatib kelavergan. Xazon ko'chimi an'anaviy ko'chim hisoblanib, o'zida turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ko'chimlar poeziyada g'oya, mazmuni ifodalovchi asosiy unsurdur. Har bir ko'chimde ichki va tashqi ma'no mujassam bo'lgan bo'ladi. Zamonaviy she'riyatda ham xazon so'zi orqali ko'chimlar hosil qilingan. Ko'chim sifatida tanlangan ifoda o'zining bir qator omonimlik xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli undan turli davrlarda, turli-tuman mavzuni yoritishda faol qo'llash mumkin.

**Kalit so'zlar:** lirika, ko'chim, tazod, obraz, tanosub, motiv, omonimlik, badiiy to'qima, estetik ta'sirdorlik, trop, bayt;

### Forms of creating new meaning through art transport

**Annotation.** Migrations have been showing up with new aspects of meaning depending on the demand of the times, the needs of the time, people's consciousness and worldview. Khazan migration is considered a traditional migration and can express different meanings. Movements are the main element expressing ideas and content in poetry. Every move has internal and external meaning. In modern poetry, migrations are created through the word hazan. Since the expression chosen as a metaphor has a number of homonymous features, it can be actively used in different periods and to cover different topics.

**Key words:** lyrics, movement, contrast, image, proportion, motif, homonymy, artistic texture, aesthetic impact, trope, stanza;

### Формы создания нового смысла через искусство транспортная

**Аннотация.** Миграции проявляются с новыми аспектами смысла в зависимости от требований времени, потребностей времени, сознания и мировоззрения людей. Хазанская миграция считается традиционной миграцией и может выражать разные значения. Движения являются основным элементом выражения идеи и содержания в поэзии. Каждое движение имеет внутреннее и внешнее значение. В современной поэзии миграции создаются через слово хазан. Поскольку выражение, выбранное в качестве метафоры, имеет ряд омонимичных признаков, оно может активно использоваться в разные периоды и для освещения разных тем.

**Ключевые слова:** лирика, движение, контраст, образ, пропорция, мотив, омонимия, художественная фактура, эстетическое воздействие, троп, строфа;

**Kirish.** Mumtoz lirika ko'chim va o'xshatishlarning tub o'zagida bunyod bo'lganligi hamda shu yo'nalishda falsafiy qarashlar majmuini paydo qilgani bilan ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida poeziya yaxlit bir san'at ko'rinishida namoyon bo'libdiki, bunda ko'chim hosil qilish, an'anasi shakllangan va bu an'anaga qat'iy

amal qilingan. Ortiqboy Abdullayev ta'kidlaganidek: "She'riyat muttasil va muntazam izlanish mevasidir. Izlangan sho'rgina hayot muammolari haqida, inson qalbining sirli sadolari haqida yangi fikrlar aytishga, yangi she'riy obrazlar yaratishga qodir. Izlanishda ham, izlanish bor".

Ko'chimlar davr talabi, zamon ehtiyoji, kishilarning ongi va dunyoqarashiga bog'liq holda yangi ma'no qirralari bilan bo'y ko'rsatib kelavergan. Misol uchun, shoh va shoir Bobur asarlarida bir mazmun ifodalagan ko'chim bugungi davr taqozosi bilan yangicha bir jilo kasb qilgan bo'lishi tabiiy hol.

*"Xazon yaprog'i yanlig' gul yuzung hajrida sarg'aydim,  
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim,"*

Bobur anglab olish qiyin ifodalar, haddan ortiq mubolag'alardan qochib fikrni ravshan ifodalashga harakat qilgani ko'rinib turadi. Shoir qarashlarini hayotiy detallar orqali rivojlantiradi. Ma'shuqa va oshiqning o'zaro ruhiy holatini bir-biriga qarshi qo'yish orqali tazod san'atini hosil qiladi. Ushbu baytda ikkita muhim obraz – lola va xazon yaprog'i oshiq va ma'shuq holatini to'la ifodalagan. Lirik qahramon ma'shuqani lolaga, oshiqni xazonga o'xshatadi. Bu orqali ham ko'chim, ham tazod san'atini hosil qiladi. Chunki lola va xazon bir-birini inkor etuvchi tushunchalardir. Yor oshiq nazdida beparvoligi uchun guldek yashnayapti. Oshiq esa hajr o'tida yonmoqda va xazon kabi tamom bo'lmoqda. Baytda shoir ma'shuqaga nisbatan "gul yuz", "lola ruh", oshiqqa nisbatan "xazon yaprog'i", "hajrida sarg'aydim", "chehrai zardim" ko'chimlarini qo'llash orqali tanosub san'atini ham hosil qiladi. Ushbu ko'chimlar o'zaro birlashib, ishq haqida, ishq dunyosining nozozligi haqida bir hikoyaga aylanadi.

Xazon ko'chimi an'anaviy ko'chim hisoblanib, o'zida turli ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ta'kidlab o'tish kerakki, «Har qanday adabiy-badiiy takomil u yoki bu darajada o'zigacha bo'lgan adabiyot bilan vorislik aloqalari asosida shakllanadi». O'z davrida xazon so'zi turli xil ma'nolarda qo'llangan, ya'ni bu so'z qarilik, ko'ngil, yolg'izlik, asbiylik, judolik, kuz fasli, mag'lubiyat, ziynat, boyluk kabi bir qator tushunchalarni ham ifodalagan. Albatta, yangi davr she'riyatida ham muayyan bir so'z mavhumlik tug'dirmasligi uchun so'zning aniq shakli va u ifodalaydigan ma'noni anglab olish zarur bo'ladi. Chunki ko'chimlar poeziyada g'oya, mazmunni ifodalovchi asosiy unsurdir. Har bir ko'chimda ichki va tashqi ma'no mujassam bo'lgan bo'ladi. Zamonaviy she'riyatda ham xazon so'zi orqali ko'chimlar hosil qilingan. Buni, Muhammad Yusufning "O'g'lonlar" she'rida ham kuzatish mumkin.

*"Alpomishday kelbatidan gapirmay,  
O'n sakkiz yoshga ham kirib yo kirmay.  
O'n gulidan bir guli ham ochilmay,  
Umri xazon bo'lib ketgan o'g'lonlar."*

"Poetik motivlar mazmun jihatidan muayyan "uya"ni tashkil qiladi, "uya"dagi motivlar matnda aksar hollarda birga qo'llanadi yoki nazarda tutiladi". Ushbu to'rtlik orqali shoir Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbek o'g'lonlarini yodlaydi, ularning pok ruhiga hurmat bajo keltiradi. Bu so'z Navoiy baytida "qarilik" ma'nosida, Muhammad Yusuf ijodida "o'lim" ma'nosida ishlatiladi. Badiiy g'oya, she'rdan kelib chiqadigan obrazli umum-

lashma sifatida xazon so'zi turli ma'nolarda kela oladi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisaga muallif g'oyaviy-hissiy munosabati yetakchi rol o'ynaydi. Ijodkor so'zdan foydalanayotganda o'zini voqelikdagi qaysi jihatlar qiziqtirishi, ularga qanday g'oyaviy-hissiy munosabatda bo'lishini o'zi belgilaydi.

Ko'chim sifatida tanlangan ifoda o'zining bir qator omonimlik xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli undan turli davrlarda, turli-tuman mavzuni yoritishda faol qo'llash mumkin. Bu holatda, avvalo, ushbu ko'chim xarakter va ma'no tomonidan shu davrning barcha xususiyatlariga javob bera olishi kerak. Bu esa ijodkor g'oyalarining aniqligi va ifodaviyligini belgilovchi omil sanaladi. Xususan, Ogahiy ijodini o'rganish jarayonida "xazon"ni kuz fasliga monand ishlatilganini ko'ramiz. Aslida, mumtoz she'riyatimizda xazon so'zi kuz faslini ifodalaydi. Umumlashtirish, individuallashtirish, badiiy to'qima va estetik ta'sirdorlik adabiy asarning hamma unsurlariga taalluqli. Umumiy ko'rinish ham badiiylarning ko'rsatgichi bo'lganidek ko'chimsiz birona san'at turini ham yaratish mumkin emas. Birgina "xazon" so'zining ko'chim sifatida yuzlab ma'nolarda qo'llanilishining o'zigina fikrimizni tasdiqlay oladi.

*"Xazoni g'am aro afsurdaman qish yanglig', ey soqiy,  
Bahori lutf ila may gullarin ochg'ilki yoz o'lsun"*

Yuqorida xazon so'zining qarilik, o'lim kabi tushunchalarni ifodalashini ko'rgan edik. Bu yerda Ogahiy "xazon"ni qo'llash orqali kuzni ifoda etgan. Ishqiy mavzuda yozilgan bu baytda shoir yoridan kelayotgan azoblarni rohat deb qabul qiladi. Ma'shuqa qancha jabr qilsa, oshiq bundan shuncha rohatlanadi.

Ko'rinadiki, "xazon"ga yuklangan ma'no turli tomonlama fikr birlashmasiga olib kirilib, turli ma'no ifodalarni yuzaga chiqargan. Baytlardagi ma'nolar ilohiy ilhom natijasi bo'lib, shoirlar ijod laboratoriyasida pishib yetilgan. Zero, she'r ilohiy ilhom samarasi, inkishofi, tajassumi, shu bois u oniy lahzada chaqinday chaqnaq, momoqaldiroqday gumburlab, aks-sado berib, qalbni ravshanlashtiradi, tozartiradi.

Poetik ko'chimni hosil qilish uchun ajratib olingan so'z yoki so'z birikmasi hamisha aniq bo'lishi va ko'chimga aylanishi uchun o'zgaruvchan harakatni sodir etishi kerak. Bir so'z ko'chim hosil qilgandan keyin turg'unlik holatini yo'qotadi va shaxsiy ifoda berishi uchun xizmat qiladi. Bir so'z yaratilgan davrda aniq ma'no ifodalaydi, ammo davrdan-davrga ko'chgan paytda ma'no qirralari o'zgarib, trop hosil qiladi. Mana shu harakat uni aniq bir ko'chim, aniq bir mavzu, aniq bir motivga aylantiradi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining iste'dodli vakili Usmon Azim lirikasida "xazon" so'zi turli ma'nolarda qo'llanilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, shoirning ijodidagi berilgan "xazon" o'xshatishdir. O'xshatish haqida Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida quyidagicha yozadi: "Bir sifatda, bir holda o'rtoq bo'lg'an ikki narsani bir-biriga chog'ishtirish adabiyot tilida o'xshatish bo'ladi". Xazon ko'chimini Usmon Azimning quyidagi she'riy parchasi orqali kuzatamiz:

*“Iztirob – umrning xazonligida  
Kunlaring haq sari tashlarkan qadam,  
Qalb chiqib betartib to‘g‘onligidan,  
Ko‘radi: o‘limu hayot bir qadam”.*

Bu holat she‘rning estetik qiymatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shakl, mazmun va ko‘chimning uyg‘unligi ifodani ham yuksak darajaga ko‘taradi. Ijodkorda o‘zgalarning yo‘nalishidan ajralib turuvchi o‘z so‘zi, o‘z yo‘li borligini ko‘rish mumkin. Usmon Azimning poetika oldiga qo‘ygan maqsadlari ham hayotni to‘g‘ri va haqqoniy tasvirlashdan iboratdir. Yuqoridagi bandda ham shoir tuyg‘ularini qog‘ozga tushirar ekan, o‘limning haqligiga ishora qiladi. Unga tayyor turish kerakligi haqida gapiradi. O‘lim tushunchasi yashamoqning

davomi ekanligini o‘quvchiga ham singdirishga harakat qiladi. Birinchi misrada ifodalangan xazon so‘zi umrning o‘tkinchiligiga, hech nima abadiy ekanligini aytadi. Bu orqali so‘z ma‘no yuki ham oshib boraveradi. Bu fikrga yondosh holda adabiyotshunos olim Izzat Sulton quydagicha qarashlarni bayon etadi: “Badiiy asar tili go‘zalligining aniq bir sharti bor tasvir aniq ravon bo‘lishi, Ya‘ni tasvir etilayotgan xulq, harakat, yoki manzara til tufayli o‘quvchilarning ko‘z oldida aniq va yorqin namoyon bo‘lishi zarur” Demak, yozuvchi-san‘atkor hamma vaqt yangilik yaratadi. Chunki uning vazifasi – tabiat va odamning nusxasini berish emas, balki o‘xshash qilib yaratilgan narsaga jon va harakat ato etishda, uning qalbi, mazmuni, xarakterli ko‘rinishi haqida taassurot uyg‘otishda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan, 1983. 71-bet.
2. Tojiboyeva M.A. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an‘analari. Fil.fan.dok ...dis. avtoref. – Toshkent. 2018. 27-bet.
3. Yusuf M. Saylanma. – T.: Sharq. 2007. 54-bet.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadernashr. 2010. 181-bet.
5. Ogahiy. Devon. – T.: G‘afur G‘ulom. 421-bet.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T.: O‘qituvchi, 1995. 62-bet.
7. Sulton I. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: Sharq. 1980, 206-bet.
8. <https://ziyouz.uz/videoteka/bobur-xazon-yafrogi-yanglig-gul-yuzung-hajrida-sargardim-video/>

**Rashidova Madina Rahmatovna**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Samarqand filiali assistenti

## SO‘Z-GAPLAR TASNIFI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada odatiy gaplardan ajralib turuvchi va bir so‘z bilan ifodalanuvchi gaplar, ya‘ni so‘z-gaplarning tasnifi haqida fikr yuritganmiz. So‘z-gaplar o‘ziga xos struktur ko‘rinishga ega bo‘lib, ularni gap bo‘laklariga bog‘lab bo‘lmasligi, shu bilan birga ularning sintaktik xususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z-gaplar, gap bo‘lagi, gap, so‘z, modal so‘zlar, undov so‘zlar, tasdiq so‘zlar, inkor so‘zlar, taklif so‘zlar, ishora so‘zlar, sintaktik xususiyat, kesimlik qo‘shimchalari.

**Annotation:** In this article, we examined the classification of sentence words that differ from ordinary sentences and are expressed in one word. Sentence words are a special structural type, in that they cannot be associated with sentence members. Their syntactic features are also discussed.

**Key words:** Sentence words, sentence, part of speech word, modal words, interjections, affirmative words, negative words, suggestive words, syntactic features, verbal suffixes.

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрели классификацию слов-предложений, которые отличаются от обычных предложений и выражаются одним словом. Слова-предложения представляют собой особый структурный тип, то, что они не могут быть связаны с членами предложения. Также обсуждаются их синтаксические особенности.

**Ключевые слова:** Слова-предложения, предложение, часть речи слово, модальные слова, междометия, утвердительные слова, отрицательные слова, суггестивные слова, синтаксические особенности, глагольные суффиксы.

Biz nutqimizda qo‘llaydigan gaplarning aksariyat qismi, bir vaqtning o‘zida ham kommunikativ birlik, ya‘ni, muloqot vositasi ham sintaktik elementlardan qurilgan grammatik struktura hisoblanadi. Bular ikki bosh bo‘lakli sintaktik tarkib hisoblanib, ega va kesimdan iborat bo‘lgan gaplar: *Baxshi bor joyda yaxshi bor (maqol)*; yoki izohda mutloq mustaqil va kontekstga murojaat talab etmaydigan asosiy gap bo‘lagining yagona sintaksis pozitsiyasi namoyon bo‘lgan bir bosh bo‘lakli gaplar: *Yirtqichni uyasida yanch (maqol)* bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari ikki bosh bo‘lakli elliptik, ya‘ni to‘liqsiz gaplar ham bor. Ularda asosiy bosh bo‘lak tushib qolganligiga qaramasdan, gapni to‘ldirib kelayotgan ikkinchi darajali bo‘laklar aynan nima tushib qolganligini ochiqlab bera oladi. *Rassom Rashid Temurov Samarqand va Buxoro haqida (gaz.)*. Shu bilan birga bosh bo‘lak yoki ikkinchi darajali gap bo‘laklari tushirib qoldirilganda gap ma‘nosini tushunib bo‘lmaydigan to‘liqsiz gaplar ham mavjud: *“Muhtasham yuz yil”dan tortib «Ishkomli uy”gacha. Mashhur turk yulduzlari Toshkentga tashrif buyuradi (gaz.)*.